



YOII MAMLAKATLARI BILAN O‘ZARO STRATEGIK HAMKORLIK O‘ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHIDIR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-iyun kuni Minsk shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida YOII huzuridagi kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi.



Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko raisligida o‘tgan uchrashuvda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, kuzatuvchi maqomida Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Dias-Kanel, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyoni (videomurojaat yo‘lladi) hamda Yevroosiyo

iqtisodiy komissiyasi Hay‘ati raisi Baqitjan Sag‘intayev ham qatnashdi. Mehmon sifatida Abu-Dabi valiahdi shahzodasi Shayx Xolid Ol Nahayon, Mo‘g‘uliston Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Nam-Osorin Uchral va MDH Bosh kotibi Sergey Lebedev ishtirok etdi.

Kun tartibidan ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-

quvvatlash, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish masalalari o‘rin oldi.

O‘zbekiston Prezidenti nutqining avvalida YOII mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidladi.

Tashkilotga a‘zo mamlakatlarga ularning

delegatsiyalari joriy yilda O‘zbekistonda o‘tkazilgan “Innoprom. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi va to‘rtinchi Toshkent investitsiya forumida faol ishtirok etgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Ushbu tadbirlar yakunida muhim kelishuvlarga erishilgan, hamkorlikning yangi yo‘nalishlari va istiqbolli loyihalarini belgilab olingani alohida ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilish ishtirokchilariga O‘zbekiston bilan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlik qay darajada rivojlanayotgani to‘g‘risida ma’lumot berdi. Xususan, kuzatuvchi davlat maqomidagi hamkorlik davrida O‘zbekistonning Ittifoq mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 80 foizga oshib, o‘tgan yil yakuniga ko‘ra 18 milliard dollarni tashkil etdi.

Joriy yil mart oyida qo‘shma Ishchi guruhning to‘rtinchi yig‘ilishi muvaffaqiyatli o‘tkazildi, uning yakunida texnik to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish va ishbiarmonlik tashabbuslarini rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

[Davomi 2-betda](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY DARAJADAGI YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHINING YIG‘ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalo, an’anaviy samimiy qabul va bugungi uchrashuvimizni yuqori darajada tashkil etgani uchun Belarus Respublikasi Prezidenti hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoga bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida Belarus tomonining samarali raisligini, bu davrda ko‘p tomonlama amaliy hamkorlik sezilarli tarzda faollashganini ta’kidlamoqchiman.

Bugun hamkasblarimning nutqlarida jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan murakkab vaziyatga baho berildi. Proteksionizm va sanksiyalar siyosatining kuchayishi, savdo-logistika zanjirlarining buzilishi va xorijiy sheriklarning investitsiyaviy faolligi qisqarib borishi oqibatlarining salbiy ta’sirini biz O‘zbekistonda to‘liq his etmoqdamiz.

Bizning tabiiy va an’anaviy sheriklarimiz bo‘lgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish tashqi iqtisodiy siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, joriy yil boshidan buyon O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan “Innoprom. Markaziy

Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi va to‘rtinchi Toshkent investitsiya forumini qo‘llab-quvvatlagani va ularning ishidagi delegatsiyalarimiz faol ishtirok etgani uchun barcha hamkasblarimga minnatdorlik izhor etaman.

Ushbu tadbirlar yakunida muhim kelishuvlarga erishildi, kooperatsiya bo‘yicha yangi yo‘nalishlar va istiqbolli loyihalar belgilandi. Biz mamlakatlarimizning yanada ko‘proq yetakchi kompaniyalari va moliyaviy guruhlarini jalb etgan holda, ushbu hamkorlik maydonchalarini kengaytirishni rejalashtirmoqdamiz.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari! Sizlarga O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan ko‘p tomonlama hamkorligi qanday rivojlanayotgani haqida qisqacha ma’lumot bermoqchiman.

Kuzatuvchi davlat maqomidagi to‘rt yillik hamkorlik davrida O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 80 foizga o‘tdi va o‘tgan yil yakuni bo‘yicha 18 milliard dollarni tashkil etdi. Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman, savdo operatsiyalari nomenklaturasi, avvalambori, sanoat mahsulotlarini yetkazib berish hisobidan kengaymoqda. Qo‘shma korxonalar va loyihalar soni uch barobar o‘tdi.

Joriy yilning mart oyida Qo‘shma ishchi guruhining to‘rtinchi majlisi muvaffaqiyatli o‘tkazilib, uning yakunida texnik to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish va ishbiarmonlik tashabbuslarini rag‘batlantirish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Biz 40 ta aniq chora-tadbirni qamrab olgan, uch yilga mo‘ljallangan yangi Rejani amalga oshirishga kirishdik.

O‘zbekiston, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining muhim tashabbuslarida, jumladan, “Yevroosiyo agroekspres”, elektron savdoni rivojlantirish, yuklarni tashishni raqamlashtirish va iqlim masalalari kabi loyiha va dasturlarda faol ishtirok etmoqda.

Aprel oyida barcha tartib-taomillarni yakuniga yetkazdik va Yevroosiyo taraqqiyot bankini ta’sis etish haqidagi bitimga qo‘shildik. Bank bilan hamkorlikda infratuzilmani modernizatsiya qilish, metallurgiya, to‘qimachilik, kimyo sohalari va boshqa strategik tarmoqlarda istiqbolli loyihalar portfli ishlab chiqilmoqda.

Hurmatli hamkasblar! Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tmoqchiman.

Biz o‘zaro savdo aylanmasini kengaytirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirishga muhim ahamiyat qaratamiz.

O‘zbekiston mamlakatlarimiz o‘rtasidagi erkin savdo hududi faoliyatini ta’minlash bilan bog‘liq barcha kelishuvlarni to‘liq hajmda bajarmoqda.

Savdo operatsiyalari tartib-taomillarini soddalashtirish va texnik tartibga solish tizimlarini yaqinlashtirishga qaratilgan qator takliflarimiz ekspertlar tomonidan o‘rganib chiqilishini tezlashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Biz, shuningdek, savdoni qo‘llab-quvvatlashda texnik tartibga solishning raqamli tizimlari va Ittifoqning raqamli transport yo‘laklari ekotizimi, Yevroosiyo qayta sug‘urtalash kompaniyasi kabi vosita va mexanizmlarga qo‘shilishidan manfaatdormiz. Bu bizning biznesimiz uchun sharoitni sezilarli darajada yengillashtiradi, mamlakatlarimizning tovar bozorlariga o‘zaro kirishida qulay imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt jadal rivojlanib borayotganini hisobga olib, qamrab olinishi sohasida ko‘p tomonlama hamkorlik qilish istiqbolga ega, deb hisoblaymiz.

[Davomi 2-betda](#)

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA YETAKCHILARI YOII SAMMITI DOIRASIDA UCHRASHUV O‘TKAZDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 27-iyun kuni Minsk shahridagi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi sammiti doirasida uchrashuv o‘tkazdilar.

Ikki tomonlama hamkorlikning joriy holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlarining o‘shish sur’atini ta’minlash, ustuvor kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, hududlarning samarali aloqalari va faol madaniy-gumanitar almashinuvni qo‘llab-quvvatlash borasida birgalikda amalga oshirilayotgan ishlar mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘ZA

“OLTIN QALAM” MANZUMASI



Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

*Hayot mangu etar davom,
So‘nmagay hech mehru karam.
Yorug‘likka shior bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Xalqu Vatani, xalqu Vatani,
Oltin dashtim, oltin daram.
Sen elga dashtiyor bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Toshqin solsin har bir suxan,
Misli yomg‘ir, selu jalam.
Dillarga navbahor bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Vatan – duogo‘yim onam,
Vatan – beshikdagi bolam,
Nomus bo‘lgil, sen or bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Gohi titrab ketar dunyo,
Gohi qalqib turar olam,
Sen ogoh bo‘l, hushyor bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Ro‘yi zamin, ro‘yi zamin,
Unsin doim gulu lolam.
Ezgulikka sen yor bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

*Ona yurtim, ona yurtim,
Oltin quyosh, oltin daram.
Sen nurli iftixor bo‘lgil,
“Oltin qalam”, “Oltin qalam”.*

ORTIMIZDA TOG‘DEK TAYANCH – VATAN MEHRI



BIZGA SERGAKLIK, JASORAT VA SHIJOAT BAG‘ISHLAB TURADI

Inson kasbi bilan bog‘liq ishlarni har kuni nafas olishdek tabiiy jarayon deb qabul qiladi. Jumladan, jurnalist ham doim fikr aytish, uni boshqalarga yetkazishga ehtiyoj sezadi. Shu bois, uning maqola yozishi nafas olishdek tabiiy jarayon. Ammo jurnalist nimani qanday yozayotgani haqida chuqur mulohazaga kirishsa, birdan hushyor tortadi. Negaki, so‘zning cheksiz qudratidan qanchalik foydalana olayotgani yoki aksinchaligi oydinlashadi. Shu ma’noda, bugungi global mafkuraviy kurashlar davrida jurnalistika eng zarur himoya qo‘rg‘onidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigida: “Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi o‘ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’siri har qachongidan

ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hammamiz sezib-anglab turibmiz”, deb bejiz ta’kidlamadi. Shu ma’noda, jurnalistlarning sarhadlarimizda doim sergak turgan Vatani posbonlariga qiyoslanishi ajablanarli emas.

[Davomi 3-betda](#)



ORTIMIZDA TOG‘DEK TAYANCH — VATAN MEHRI

BIZGA SERGAKLIK, JASORAT VA SHIJOAT BAG‘ISHLAB TURADI



Salim DONIYOROV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda mamlakatimiz tom ma'noda yangilanishlar diyoriga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani mustahkamlandi. Ilgari mavjud "davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasi "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgartirildi. Umuman, "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida har bir soha, yo'nalishda tub o'zgarishlar ro'y berdi. Ochig'i, tarixan juda qisqa fursat — 7-8 yilda yurtdoshlarimiz hayotini yanada yaxshilash, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi bunday yangilanishlarning sanab adog'iga yetish mushkul. Zalvorli, ta'bir joiz bo'lsa, tarixiy yutuqlarimiz qatorida jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikka, so'z erkinligiga keng yo'l berilgani, bugun OAV vakillari, blogger va faollar jamoatchilik nazoratini ta'minlashning samarali bo'g'iniga aylanganini ham alohida ta'kidlash o'rinni.

Hozir bundan ham baland marralarni ko'zlab olg'a intilyapmiz. Ana shu jarayonda matbuotning o'rnini hech narsa bilan qiyoslab, to'ldirib bo'lmaydi. Buni qisqa va tushunarli qilib ifodalasak, o'sish, o'zgarish jarayonida jamiyat bir butun

vatan, yagona xalq bo'lib olg'a intilishi kerak. Ana shu birdamlik so'z — matbuot orqali shakllantiriladi.

Haqiqatan, bugun so'zning qudrati, axborotning kuchi tobora ortib borishi barobarida, internet va ijtimoiy tarmoqlar qamrovi oshib borishi hisobiga qudratli kuchni qo'llash maydoni ham kengayib bormoqda. Bu o'z-o'zidan har bir davlat, jamiyat uchun himoyalansh refleksi, boshqacha aytganda, milliy kontentni rivojlantirish talabini yuzaga keltirmoqda.

Shu ma'noda, mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilyotgani, xususan, Prezidentimiz qaroriga asosan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil etilgani, ayni paytda markaz mahalliy ijodkorlarga milliy kontentlar yaratish bo'yicha buyurtmalar berib, sohada kadr tayyorlashni tashkil qilayotgani quvonarlidir.

Lekin bir jihatni aslo yoddan chiqarmasligimiz kerak: milliy kontentlar yaratish, umuman, internet o'zbek segmentini sifatli milliy kontentlar bilan boyitish birgina markazning ishi emas. Bu, modomiki, birligimiz, hamjihatligimiz, tinchligimiz va barqaror kelajagimiz bilan bog'liq ekan, milliy kontentni rivojlantirish hammamizning, yuragida shu vatanga muhabbati bor har birimizning burchimizdir. Ayniqsa, milliy kontent masalasi OAV vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek jurnalistikasining bir vakili sifatida, bugungi kunda soha oldida turgan shu kabi dolzarb vazifalarni tahlil qilib, oldinda hali qilinishi zarur bo'lgan ishlarimiz salmog'i juda katta ekanini anglaymiz. Mana shunday fursatda kamtarona mehnatlarimiz yuksak baholanib, 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida Prezidentimizning farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoniga loyiq ko'rilganini uchun alohida minnatdorlik bildirgan holda, bu bizning kelgusi faoliyatimizda juda katta mas'uliyat burchi ekanini ham teran anglab turibmiz.

Yangi O'zbekistondagi ilk o'zgarishlar xalq murojaatlari bilan ishlashdan boshlangan edi. Bunday jarayon bevosita matbuot erkinligini ham talab etadi. Mamlakatimizda har ikki jihatga birdek e'tibor berildi. Bugun o'zbek matbuoti ochiqlik, erkinlik jihatdan kechagisidan tubdan farq qiladi. Davlatimiz rahbari tabrigida qayd etilganidek: "Biz keyingi yillarda, ulug' ajdodlarimiz boshlab bergan ibratli an'analarni davom ettirib, demokratik jamiyatning muhim sharti va tamoyili bo'lgan ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz".

Darhaqiqat, ajdodlarimiz bizga rost so'zi, yolg'onni yomon ko'rishi, zukkolik bilan xalq manfaatini himoya qilishi, bir so'z bilan aytganda, vatanparvarligi bilan ibrat maktabi bo'lib kelgan. Bugungi kun jurnalisti ulardan o'rnak olishi shart. Ko'rib turibmiz, sun'iy intellekt bizga qaraylik berish bilan birga yolg'on axborot tarqatishda ham juda qo'l kelib qoldi.

Avval ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitgan xabargina ishonchli bo'lishi aytilardi. Zamonaviy texnologiyalar bu qarashni butunlay o'zgartirib yubordi. Endi ko'z bilan ko'rsangiz ham, quloq bilan eshitsangiz ham axborotni tekshirib, haqiqatligini bilgach, boshqalarga ulashish zarurati paydo bo'ldi. Agar bunga e'tibor qilmasangiz, yolg'on qurboni bo'lishingiz, xalq, vatan manfaatiga zid axborot "oyoq olishi"ga bilib-bilmasdan xizmat qilib qo'yishingiz hech gap emas. Ha, hozirgi davr jurnalistika oldiga mana shunday o'ta jiddiy masalalarni qo'yarmoqda.

Shu bois, Prezidentimiz: "Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo'nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko'proq bo'lishini taqozo etmoqda", degan edi.

O'rni kelganda tan olish kerak, bugun milliy jurnalistikamiz bu vazifani uddalayapti. Chunki mamlakatimizda matbuotni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, zamon talablariga mos rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini, matbuot va so'z erkinligining qonuniy ijrosini ta'minlash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilyapti. Shu bilan birga, biz — jurnalistlarning mehnati yuksak baholanib, munosib qadrlanyapti.

Qolaversa, ijodiy jamoalarni qo'llab-quvvatlash, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga yangi O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deya qaralmoqda. Bunga javoban bugun ijodiy jamoalar doimiy izlanishda, zamon bilan hamqadam borishga intilmoqda.

Ushbu fikrlarni "Yangi O'zbekiston" gazetasi misolida aytak. Bugun media makonimizga ilg'or loyiha va

texnologiyalarni keng joriy etyapmiz. Natijada matbuotda mediakonvergensiya erishmoqdamiz. Masalan, bugun gazetaning rasmiy veb-sayti, Telegram, YouTube va Facebook ijtimoiy tarmoqlarida sahifalari bor.

Bundan tashqari, gazetamizdagi maqolalarni maxsus QR-kod orqali qoraqalpoq tilida ham berishni joriy etganmiz. Gazetaning elektron shakllari ham o'quvchilarga taqdim etib borilmoqda. Ya'ni biz o'quvchi qayerda bo'lsa, biz ham o'sha joygacha o'z mahsulotimiz bilan kirib borishga harakat qilaypmiz.

Qolaversa, imkon qadar zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanyapmiz. Negaki, jurnalistika doim jamiyatdan bir qadam oldinda bo'lishni talab etadi. Shu ma'noda, milliy jurnalistikamiz izlanishlar natijasida yuksalib borayotganini kuzatib quvonaman. Endi bu marrani yanada yuksak olish, sun'iy intellektni ham ortimizdan ergashtira oladigan kuchli mutaxassis, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishimiz kerak. Bugun bunga barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Zero, yangi O'zbekistonda kechayotgan islohotlar sabab jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirishda OAVlariga jiddiy e'tibor berildi. Natijada davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish va hal qilish borasida milliy matbuotimiz muhim o'ringa ega bo'ldi.

Mazkur yangilanishlar jarayonida bevosita davlatimiz rahbarining o'zi turgani barchamizning qalbimizda katta faxr uyg'otadi. Ayni damda ulkan mas'uliyat ham yuklaydi. Ha, yangi O'zbekiston katta marrani ko'zlab yo'lga chiqqan karvondir. Milliy matbuotimiz esa shu karvonga boshqalarni ham adashmay ergashtiradigan ogohlik qo'ng'irog'iga aylanib bormoqda. Ana shu safda bo'lish, vatan va xalq uchun xizmat qilish tom ma'noda sharaftidir. Ana shu sharafli vazifamizni bajarish chog'ida har laha ulkan mas'uliyatni his etamiz.

MEHNAT QILGAN YUZAGA CHIQRAR EKAN

Nigora GAPIROVA,
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining muqovalash sexi muqovalovchisi, "Shuhrat" medali sohibi



Jonajon jamoam — "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi ostonasini hatlaganimga bu yil 22 yil to'ldi. O'sha 2003-yili — muqovalash sexida ish boshlagan davrim qo'lim qovushmay qiynalganlarim, atrofimdagi malakali ishchilar goh kulib, goh tanbeh berib, menga qanday to'g'ri harakat qilish kerakligini erinmay o'rgatgani shundoq ko'z oldimda turibdi.

Bilsangiz, turli bo'yoq, kimyoviy qo'shimchalar, tozalovchi vositalar, yelimlash mahsulotlari, qog'oz va kartonlar changidan bosmaxonaning havosi og'ir bo'ladi. Dastlabki davrlar ba'zan boshim og'rib qolardi. Hozir texnologiyalar ancha rivojlandi, zamonaviylashdi, sharoitlar yengillashdi.

Matbaachilikning ham o'z sir-asorlari bor. Chop etilgan har bir kitobni qo'ldan o'tkazar ekanman, u hech qancha vaqt o'tmay, kimlargadir yo'lchi yulduz bo'lishini, bitta kitobni bir necha odam mutolaa qilishi kerakligini his etardim. Shuning uchun vazifamni imkon boricha sidqidildan, sifatli bajarishim kerakligini



Davlatimiz rahbarining "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni bilan taqdirlanganlar ro'yxatida mening ham ism-sharifim borligini aytishganida, ko'zimdan yosh chiqib ketdi.

angladim. Ustozlarim ham kitob muqovasi qanchalik pishiq, puxta bo'lsa, u uzoq yillar xizmat qilishini ko'p ta'kidlaydi.

Muqovalovchi — ma'rifatga xizmat qiluvchi fidoyi inson. Har bir sahifada uning mehnati, diqqati va kasbiga sadoqati mujassam. Mehnat qilgan yuzaga chiqar ekan.



Mukofotlanganlarning ko'pinisi sirtidan bo'lsa-da taniyman. Negaki, ayrimlarining kitobi bosmaxonamizda chop etilgan, "Sharq"da nashr etiladigan gazeta-jurnallarda maqolalarini o'qiganman. Ushbu ziyokorlar qatorida vatanning yuksak nishonini olish juda yoqimli bo'lar ekan.

Yillar davomida kitob dunyosida, ma'rifat yo'lida xizmat qilish men uchun nafaqat ish, balki hayotimning mazmuniga aylanib ulgurdi. Nashr etilgan har bir kitob ortida ko'zga ko'rinmas, lekin qalbdan bajarilgan mehnat yotadi. Shu bois, bu mukofot men uchun beqiyos baxt va iftixordir.

Raixan AMANGELDIYEVA,
O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Nukus teleradiomarkazi filiali tasvir yozish guruhi katta elektr mexanigi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Yurtimizda sohamizning yetuk mutaxassisi bo'lishimiz, bilimimizni doimiy oshirib borishimiz, mehnatimiz samarasini ko'rib, uning rag'batini his qilishimiz uchun barcha sharoitlar bor. Mana shunday yuksak e'tibor va g'amxo'rlik uchun minnatdorman.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



E'TIBOR G'AYRATIMIZGA G'AYRAT QO'SHADI

Bugungi kunda har bir soha rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar tahsinga sazovor. Men ham mana shu katta oila, ya'ni O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida faoliyat yuritayotganimdan faxrlanam. Qoraqalpog'istonimizning turli hududlarida yashayotgan insonlarga tezkor va xolis axborot yetkazishdek mas'uliyatli vazifada mening ham kichik bir hissam borligini o'ylasam, qalbm g'urunga to'ladi.

Prezidentimiz farmoniga ko'ra, Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlanganim haqidagi xabarni eshitganimda, ochig'i, hayajondan tilimga so'z kelmay qoldi. Bu yuksak mukofot nafaqat mening, balki Nukus teleradiomarkazida mehnat qilayotgan barcha hamkasblarim, ustozlarimning mehnatiga berilgan yuksak bahodir. Chunki bizning sohamiz ulkan bir mexanizm. Birgina efir orqali xonadonlarga kirib boradigan tasvir va ovoz ortida o'nlab, yuzlab insonlarning mashaqqatli

mehnati yotadi. Katta elektr mexanigi sifatida vazifam — ushbu murakkab tizimning uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlash. Har bir tasvir, har bir tovushning tiniqligi bizning mehnatimizga bog'liq. Buni chuqur his qilgan holda vazifamga sidqidildan yondashishga harakat qilaman.



Ko'p yillar davomida shu sohada ishlab, uning butun sir-asrorlarini o'rgandim, kasbimning haqiqiy fidoyisiga aylandim. Bugun ortga nazar tashlab, shu kasbni tanlaganimdan aslo afsuslanmayman. Aksincha, ana shu mehnatlarim samarasini ko'rib, davlatimiz tomonidan bunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lganimdan boshim osmonga yetdi. Bu mukofot zimmamga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Bildirilgan ishonchni oqlash, yurtimiz media sohasi rivojiga o'z hissamni qo'shish uchun bundan buyon ham bor bilim va tajribamni ishga solaman.

Fursatdan foydalanib, barcha matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini kasb bayrami bilan chin qalbindan tabriklayman. Ularning mashaqqatli, ammo sharafli faoliyatiga zafarlar tilyaman.

Menga ko'rsatilgan yuksak ishonch va e'tibor uchun yana bir bor minnatdorlik izhor etaman. Bu mukofot meni yangi marralar sari ruhlantiradi. Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida astoydil mehnat qilishda g'ayratimizni oshiradi.

